

OILADA BOLALAR NING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHIDA OTA-ONANING IJTIMOIY ROLINI BAHOLASH

Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna

Toshkent viloyati Angren shahar 40-maktab psixologи

Annotatsiya: Emotsional rivojlanish insonning psixologik va hissiy holatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu jarayon odamning turli yosh bosqichlarida, xususan bolalik va o’smirlig davrlarida o’ziga xos va murakkab tarzda shakllanadi. Oilaning bu rivojlanishdagi o‘rnii juda muhimdir, chunki oilaviy muhit bolaning hissiy barqarorligini ta’minalash, o’zini anglashini rivojlantirish, stress va tashvishlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: oilaviy munosabatlar, emotsional rivojlanish, bolalar, o’smirlar, hissiy barqarorlik, ota-onal, ijtimoiy munosabatlar, stress, emotsional muvozanat, yosh psixologiyasi

KIRISH

Inson shaxsining shakllanishida oila birlamchi ijtimoiy muhit sifatida eng muhim rol o‘ynaydi. Bola ilk bor mehr, qo’llab-quvvatlash, muloqot va ijtimoiy qadriyatlarni aynan oilada his qiladi. Shaxsiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy-emotsional rivojlanish ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi, munosabati va ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

I. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish tushunchasi va ahamiyati

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish – bolaning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish va jamiyatda moslashish jarayonidir. Bu rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari: mehribonlik, hamdardlik (empatiya), o’zini boshqara olish, ijtimoiy qoidalarga amal qilish, hamkorlik va muloqot madaniyati. Olimlar (L. Vygotskiy, E. Erikson, U. Bronfenbrenner) ta’kidlashicha, bola emotsional rivojlanishida ijtimoiy muhit, xususan oila hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

II. Ota-onaning ijtimoiy roli

1. Tarbiya uslublari

Avtoritar ota-onal – qattiqqo‘l, nazorat kuchli, ammo mehr yetarli emas → bola qo‘rqaq, ishonchhsiz bo‘lib ulg‘ayadi.

Demokratik ota-onal – mehribon, nazorat va erkinlik muvozanatda → bola faol, ijtimoiy jihatdan moslashgan bo‘ladi.

Liberal ota-onal – cheklolar yo‘q, talab past → bola intizomsiz, emotsional barqarorligi sust bo‘lishi mumkin.

2. Ota-onaning shaxsiy namunalari

Bola ota-onaning xatti-harakatini kuzatib, ularni takrorlaydi.

Ota-onaning mehnatsevarligi, madaniyati, ijtimoiy faoliyati bolaning xarakterini shakllantiradi.

3. Ota-onaning ijtimoiy mavqeи

Jamiyatdagi o‘rni, kasbiy faoliyati va qadriyatlarga bo‘lgan munosabati ham bolaning dunyoqarashini kengaytiradi.

III. Oila muhiti va uning bola rivojlanishiga ta’siri

Mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi muhit – bola o‘ziga ishonadi, ijobjiy histuyg‘ulari barqarorlashadi.

Mojoroli, zo‘ravonlik bo‘lgan muhit – bolada qo‘rquv, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy izolyatsiya yuzaga keladi.

Milliy qadriyatlar – ota-onaning bolaga hurmat, kattalarga itoat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni singdirishi ijtimoiy-emotsional rivojlanishda muhim o‘rin tutadi.

IV. Ota-onaning ijtimoiy rolini baholash usullari

1. Psixologik suhbat va kuzatish – bola va ota-onaning o‘zaro muloqoti tahlil qilinadi.

2. So‘rovnomalar va test metodlari – ota-onaning tarbiyaviy yondashuvini aniqlash.

3. Boladagi indikatorlar:

O‘zini hurmat qilishi va baholashi.

Boshqalar bilan hamkorlik qobiliyati.

Emotsional barqarorligi va empatiya darajasi.

Oilaviy munosabatlar bolaning emotsional rivojlanishida asosiy o‘rin egallaydi. Ijobiy va salbiy munosabatlar bolaning hissiy holatiga bevosita ta’sir qiladi. Misol uchun, ota-onalar orasidagi ijobjiy muloqot va tinch muhit, bolalar va o‘smirlarning o‘zlarini xavfsiz va mehr-muhabbatga to‘la his qilishlariga imkon yaratadi. Shuningdek, bolalar ota-onalaridan olgan ijobjiy munosabatlar orqali empatiya, mehribonlik, va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim xislatlarni o‘rganadilar. Ammo, oilada yuz beradigan ziddiyatlar, janjallar va muammolar bolalarning emotsional rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ota-onalar o‘rtasidagi doimiy ziddiyatlar, bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchlarini kamaytirishi, stress va xavotirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Salbiy oilaviy muhitda ulg‘aygan bolalar, o‘zaro munosabatlarida ko‘pincha shaxsiy xavfsizlik va ishonch muammolariga duch keladilar.

Ota-onalar bolalarining emotsional rivojlanishiga ta’sir qilishda muhim o‘rin tutadilar. Ularning tarbiya usullari, muloqot usullari va sevgisi bolalarning hissiy holatiga, o‘zini anglashiga va dunyoqarashiga bevosita ta’sir qiladi. Misol uchun, otaonalar o‘z bolalariga hissiy jihatdan qanday qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatishsa, bolalar o‘zlarini qanday his qilishlarini va boshqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganadilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash bolalarga emotsional xavfsizlikni ta’minlaydi, ularni doimiy ravishda o‘zlarini yaxshi his qilishlariga imkon yaratadi. Shu bilan birga, ota-onalar bolalarga o‘z hissiyotlarini qanday ifodalashni va boshqarishni o‘rgatishlari kerak. Hissiy ziddiyatlar, stress va boshqa ijtimoiy muammolarni boshqarishda, bolalar ota-onalaridan yaxshi o‘rnak olishadi. Ota-onalar o‘z xatti-harakatlari, muloqot usullari va bolalari bilan o‘tkazadigan vaqt orqali ularning emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar.

Bolalarning emotsional rivojlanishi. Bolaning emotsional rivojlanishi yosh o‘tishi bilan birga o‘zgarib boradi. Dastlabki yillarda bolalar asosan ota-onsa yoki ularning

g'amxo'rligini ta'minlaydigan boshqa kattalarga qarab o'z hissiyotlarini ifodalaydilar. Ota-onalar bolaning muhim shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga javobgar bo'lganliklari sababli, ularning ijobjiy va salbiy hissiy holatlari bolaning emotsiyonal rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Ota-onalar bilan yaxshi, ishonchli munosabatlar bolaning o'zini xavfsiz his qilishiga, emotsiyonal barqarorligini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolaning emotsiyonal rivojlanishi, shuningdek, ular atrofidagi ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir. Maktabdagagi o'qituvchilar, do'stlar va boshqa kattalar ham bolaning o'zini anglashida va hissiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalar jismoniy va psixologik qiyinchiliklarga duch kelganda, ular ota-onalar yoki o'qituvchilaridan yordam so'rashadi. Ular tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash va yordam bolalarga o'z hissiy holatini anglashda va ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

O'smirlarning emotsiyonal rivojlanishi. O'smirlilik davri – bu o'zini anglash, kimligini topish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni. Bu davrda o'smirlar o'z hissiyotlarini anglashda va boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Oilaning bu davrdagi roli ayniqsa muhimdir. O'smirlar uchun ota-onalar, ayniqsa, o'zaro munosabatlar, muloqot usullari va hurmat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o'smirlarning hissiy jihatdan o'sishiga yordam berish ularning ichki dunyosini tushunishga harakat qilishlari kerak.

O'smirlilik davrida, yoshlarning emotsiyonal rivojlanishi ko'plab omillar, jumladan, ijtimoiy muhit, tengdoshlari, o'quv dasturi va madaniyatga bog'liqdir. O'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqillikka bo'lgan intilishlari va o'z xohish-istikclarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlari ular o'zlarini qanday his qilishlariga va hissiy holatlarini qanday ifodalashlariga ta'sir qiladi. Agar oilada ijobjiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjud bo'lsa, o'smirlar hissiy barqarorlikka erishishlari ancha osonlashadi.

Bolalar va o'smirlarning emotsiyonal rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, oilaning bu jarayondagi roli juda katta. Ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa kattalar bolalarning hissiy holatini to'g'ri tushunib, ularga ijobjiy muhit yaratish orqali ularning emotsiyonal rivojlanishiga katta hissa qo'shishlari mumkin. Oilada yaratilgan salbiy yoki ijobjiy muhit bolalarning o'zini anglash, ijtimoiy munosabatlar va stressni boshqarish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, oilaviy ta'lif va muhit bolaning emotsiyonal rivojlanishida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Axloqiy munosabatlarning shakllanishi tashqi va ichki omillar bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqotda tashqi omillar ko'proq o'rganildi, chunki maktabgacha yoshda ichki omillarning ta'siri (etarli darajada sub'ektivlik, etuk aks ettirish, yaxlit o'ziga xoslik va boshqalar) ahamiyatli emas. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsiyonal irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosa-batida namoyon bo'ladi. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini

egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini maktab o'quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lif-tarbiya tashkilotlarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albat- ta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar.

XULOSA

Bola ijtimoiy-emotsional rivojlanishida oila asosiy tayanch muhitdir. Ota-onaning mehribonligi, muloqot madaniyati, to'g'ri tarbiyaviy uslubi va ijtimoiy faolligi bolaning kelajakdagi shaxsiy sifatlari, jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Shu bois, ota-onaning ijtimoiy rolini to'g'ri baholash va ularni pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash – farzand tarbiyasida eng muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J.M. Anderson. "Sosial-psixologiya", 2019.
2. N.I. Yusufov. "Oila va jamiyat", 2021.
3. A.O. Ahmedov. "Oila ichidagi zo'ravonlik va uning psixologik ta'siri", 2018.
4. Ziyo.net